

# Siyosiy fanlarga yoshlarni jalb qilish va siyosiy fanlarni rivojlantirishda yoshlarning o'rni

Ismoiljon Baxtiyor o'g'li Nazarov  
ismoiljonnazarov30@gmail.com  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim jarayonoda siyosiy fanlarni qanchalik yoshlar hayotida muhim o'rin olganligini bayon etish.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, siyosiy fanlar, siyosiy ma'daniyat, rivojlanish, yoshlar parlamenti

## Attracting young people to political science and the role of young people in the development of political science

Ismailjon Bakhtiyor oglu Nazarov  
ismailjonnazarov30@gmail.com  
UzNU named after Mirzo Ulugbek

**Abstract:** In this article, it is stated that political science has an important place in the life of young people in the educational process in Uzbekistan.

**Keywords:** youth, political science, political culture, development, youth parliament

### KIRISH

Hozirgi shiddatila raivojlanish davrda, ko'plab davlatlar dunyo hamjamiyati orasida o'z-o'rmini topish uchun iqtisodiy-siyosiy jihatdan mukammalashishga harakat qiladi. Ayniqsa O'zbekiston kabi aholisining asosiy tarkibini yoshlar tashkil etadigan davlatlarning taraqiyotini amalga oshirishda yoshlarga katta e'tibor beriladi. Xususan mamlakatimiz tarqqiyotga erishishida hartamonlama o'ylangan va istiqboliy strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bu strategiyalarda siyosiy jarayonlarni to'g'ri va oqilonalik bilan amalga oshirish uchun ham katta qadamlar qo'yilmoqda. Siyosatni to'g'ri amalga oshirish bu millatni, xalqni va davlatni barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'ladi. Siyosatni to'g'ri olib borish uchun esa siyosiy ilmni yuksakdarajada izchillik bilan o'rgatilishi kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Siyosiy ilmni rivojlantirish, izlanishlar olib borish, albatta katta mahoratni tashkil qiladi. Bunday mahoratlarni tashkillashtirish va o'zlashtirish juda muhim. Davlatimiz tomonidan bu muhim masalaga katta e'tibor qaratilgan. Bu mahoratlarni dalili sifatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston - strategiyasi" kitoblaridagi quydagi so'zlarini yodga olsak bo'ladi: "Taniqliy siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida u kishi bir fikrni afsus bilan ta'kidladi. Ya'ni, sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsada, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi" [1]. Prezidentimizning bu so'zлari orqali davlatimizning asosiy kuchlaridan bir bo'lgan yoshlarimiz siyosiy jarayonlarga befarq emasliklari va siyosiy jarayonlarni o'rganishda amaliy holatlarga katta e'tibor berishyotgani yaqol ko'zga ko'rindi.

Siyosiy fanlarni rivojlantirish orqali biz siyosiy ongni mustahkam immunitet bilan boyitishimiz va jahondagi eng yangi siyosiy jarayonlarni bilib olish va ularni tahlil qila olish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin. Siyosiy fanlarni rivojlantirish va siyosatshunoslikni yoshlar e'tiboriga tushirish va jalb qilishda quydagi jarayonlarni amalga oshirish lozim deb hisoblayman. Birinchidan, bunday ilm-fanni o'zlashtirish uchun fan taraqiyotining eng so'ng yangiliklarni o'zlashtirishimiz. Ikkinchidan, yoshlar orasida siyosiy kitobxonlikni vujudga keltira olish va kitob o'qsh jarayonini kengaytirish. Uchinchidan, diniy va dunyoviy fanlarni mafkuraviy jihatdan to'g'ri va izchil tahlil qilgan holatda siyosiy fanlar tizimida o'rgatish. To'rtinchidan, mamlakatimiz miqiyosida amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlarni o'z vaqtida yetkazib berish va tahlil qilish. Beshinchidan, Ommaviy axborat vositalariga yanada ko'proq ochiqlik va erkinlik berish. Bu jarayonlarni amalga oshirish muhimligining sabablaridan biri O'zbekiston axolisining 60 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilib borayotgan davlat hisoblanadi. Bu esa yoshlarimiz siyosiy jarayonlarga qo'shlishi juda muhim ekanligini bildiradi. Yuqoridagi sanab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirilishi siyosiy fanlar tizimiga yoshlarni jalb qilish va ularni yuqori kadrga aylanishiga katta hissa qo'shadi.

## MUHOKAMA

Siyosiy fanlarni o'zlashtirishda yuqori ilmiy texnologiyalardan foydalanish asosida, siyosiy fanlarni rivojlantirishga erishiladi. Bu texnologiyalarni yoshlarimiz orasida keng targ'ib qilinishi albatta yoshlarni siyosatshunoslikka jalib qilishda asosiy o'rin egalaydi. Chunki yoshlarimiz hozirgi kunda yangi ilmiy texnologik taraqiyotga qiziqishi ortib bormoqda. Bunday jarayondan esa to'g'ri yondashuv asosida

foydanilsa albatta yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalib qila olish bilan birga ularni siyosiy ongini yuksaltira olish mumkin.

Shu o'rinda yoshlarni siyosiy fanlarga jalb qilishda ularni psixologik va biologik holatlariga e'tibor berish lozim. Chunki har qanday inson jisoman va aqlan sog'lom bo'lsa o'z kasbiy yo'nalishini fan nuqtaiy nazaridan ham, ilmiy jihatdan ham to'g'ri yondashuv va taraqiyotga chiqara oladi. Siyosiy fanlarni rivojlantirishda bu holatga etibor berish juda muhim sanaladi. Respublikamiz tomonidan amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida ham yoshlarimizni sog'lom turmish va sog'lom ma'naviy holatini taminlashga katta e'tibor berilmoqda.

Yoshlarni siyosiy fanlarga jalb qilishda ularni shakilanayotgan hayoti jarayonlarini ham to'g'ri baholay olishimiz lozim. Chunki hozirgi rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonning har sohada tezlik bilan rivojlanishi va taraqiyoti ko'zga ko'rinoqda. Agar biz bu holatlarni yoshlarimiz ongida qanday tarzda gavdalanayotganini va unga ular qanday baho berayotganini bilmasak, biz yoshlarimizni qanchalik siyosiy fanlar tizimiga tortmaylik va ularga ilm o'rgatmaylik shuncha yo'qotishga uchraymiz. Zero, O'zbekiston Respublikasida siyosiy fanlarning o'qitilishiga asosiy sabablardan biri bu Prezidentimizning 2019-yilda imzolagan qarorlarida belgilanganidek: "Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish sohasida Tashqi ishlar vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim berish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasini ta'minlash;"[2] dir.

Siyosiy fanlarni rivojlanitirish Yangi O'zbekiston uchun jud muhim bosqichlardan biridir. Chunki Yangi O'zbekistonda bo'layotgan siyosiy jarayonlar xalqimizni diqqat etiboridadir. Bunga quydagi so'zlar dalil bo'ladi: "Bugungi xalqimiz - kechagi befarq va beparvo xalq emas" ligining hayot haqiqatiga aylanyotganidir." [3] degan so'zlar ham isbotlaydi. Siyosiy jarayonlar xalqimiz diqqat markaziga tushmoqda ekan, biz bu holatga xalqimiz tomonidan to'g'ri yondashuv amalga oshirilishini taminlashimiz lozim, bunga esa yagona yechim ilm bo'la oldi. Bu ilm esa siyosiy ilm hisoblanib, uni xalqimizning barcha qatlamiciga kirib bora olishini taminash va keng yoyish kerak. Bunda esa meni fikirimcha xalqimizning asosiy qatlamiciga aylanib bo'lgan yoshlarimizning o'rni juda katta bo'ladi. Shuing uchun biz ularni siyosiy fanlarga jalb qilishimiz va ularga to'g'ri siyosiy bilimni berishimiz lozim. Yosh mutaxasislarni yetishtirib chiqishda halqaro ilmiy ko'nikmalardan foydalanish juda ham muhim omiligi malum. Shu sababli biz ko'proq yashlarni jahon miqosiga chiqarish va ularni vatanimiz ravnaqiga hizmat qiladigan mutaxasis sifatida taylorlashga e'tiborni kuchaytirish lozim. Agar biz yoshlar orasida siyosiy imunitet vujudga keltirsak bu orqali kelajakda juda katta yutuqqa erishimiz mumkin. Yoshlardagi bu imunitet kelajakda yangi shakilanadigan

avvlod uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. Shu bilan birga vujudga keltirilgan siyosiy imunitet davlatimiz ravnaqi uchun katta hizmat qiladi va siyosiy doiraga ishonch tuyg‘usini mustahkamlaydi.

## NATIJA

Yoshlarni siyosiy fanlarni o‘zlashtirib va amalda qo‘lay boshlashini oshib borishi ham davlat taraqiyotini jahon hamjamiyati oldidagi o‘rnini belgilab berishda katta omil bo‘ladi. Prezidentimiz olib borayotgan siyosatlari natijasida, o‘zlarini aytganlaridek: “Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga doir davlat siyosati va uning amaliy natijalari jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Mamlakatimiz tomonidan bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar, jumladan, BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga murojaati va uni amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturini qabul qilish va amalga oshirish borasidagi takliflar...”[4] bularning bari yurtimiz yoshlarini kelajaka bo‘lgan ishonchini ortirib, siyosiy ilm -fani rivojiga katta hisa qo‘shmoqda.

## XULOSA

Xullosa qilib aytganda yurtimizda olib borilayotgan siyosiy jarayonlar haqiqiy demokratik prinsiplarga to‘g‘ri keladi. Hususan yoshlarimizga ochiqlik va oshkorlik asosida siyosiy fanlarga qiziqtirib jalb qilinishlari ham ularni siyosiy jarayonlarda faol ishtiroklari ham demokratik prinsiplarga to‘g‘ri keladi. Yurtimiz taraqiyoti ya’ni Yangi O‘zbekiston Renessansida yoshlarimiz asosiy kuch bo‘lishadi. Bu Renessansda albatta yosh intelekt yutib chiqadi va Yangi O‘zbekistonni eng yuqori cho‘qiga olib chiqadi.

Siyosiy fanlarni yoshlar orasida keng miqiyosda targ‘ib qilish va ularni o‘qitish davlat va jamiatni rivojlanish tendensiyasini kanstruktiv asoslarda kechishini taminlaydi. Chunki siyosiy ilmga ega shaxs davlat tomonidan olib boriladigan islohatlar va siyosiy jarayonlarni faqat xalq uchun ekanligini to‘g‘ri baholay oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Mirziyoyev Sh.M. YANGI O‘ZBEKISTON - STRATEGIYASI. - Toshkent “O‘zbekiston” 253-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh. 29.01.2019y.PQ-4139-son.

[3] Mirziyoyev Sh.M. YANGI O‘ZBEKISTON - STRATEGIYASI. - Toshkent “O‘zbekiston” 428-bet.

[4] Мирзиёев.И.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. : 1-жилд. Тошкент. “Ўзбекистон” .2017.495-бет.

- [5] Izzatova, A. (2022). XITOY MANBALARIDA O 'RTA OSIYO HAQIDAGI MA'LUMOTLARNING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 631-636.
- [6] Nigmatov, A. X. O., Misaboyeva, M. B., & Yormatov, A. P. O. (2021). KORRUPSIYA-FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 125-131.
- [7] O'G'Li, N. A. X. (2020). Sharq Uyg 'onishi davrida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy masalalari. *Science and Education*, 1(5), 157-161.
- [8] Нигматов, А. Х. (2021). МУЗЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИИ ИНФОРМАТИЗАЦИИ. *ББК 72 К 59*, 79.
- [9] Тилабаев, С. Б., & Иззатова, А. У. (2020). ИСТОРИЯ ГОРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ФЕРГАНА). *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-5), 131-133.
- [10] Izzatova, A. U. B., & Ilmuradova, F. S. (2022). Ispaniya qirolligi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtsidagi turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishi. *Science and Education*, 3(11), 160-165.